

**ISLOM BANKLARI TAMOYILLARI VA SHARIATGA MUVOFIQ  
INVESTITSIYA JALB QILISH MEXANIZMLARI**

*Yoqubjonov Javohir Farhodjon o'g'li*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*Islom iqtisodiyoti va moliyasi mutaxassisligi*

*1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola umumiy islom banklari tamoyillari va ular qanday moliyaviy instrumentlardan foydalanib depozitlar jalb qilishi mumkinligini o'z ichiga oladi. O'sib borayotgan musulmon aholining ehtiyojlarini qondirishda islom banklarining o'rni kata. An'anaviy banklarda ijtimoiy jihatdan hech qanday to'siq yo'qligini hisobga olsak, islom banklari ular bilan raqobatlasha olish uchun ham iqtisodiy chidamli, ham shariatga muvofiq keluvchi instrumentlardan foydalanishi kerak.

**Kalit so'zlar:** Shariatga muvofiq moliyaviy instrumentlar, mudoraba, mushoraka, vakolat, sukuk.

**Abstract.** This article covers the principles of islamic banking in general and what financial instruments they can use to attract deposits. The role of islamic banks in meeting the needs of the growing muslim population is increasing. Given that conventional banks have no social barriers, Islamic banks must use both economically viable and Shariah-compliant instruments to compete with them.

**Keywords:** Sharia-compliant financial instruments, mudarabah, musharakah, mandate, sukuk.

Bugungi kunda islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab ortib borayotgani barchaga ma'lum. Shu o'rinda islom banklari va islom darchalarini ko'payayotgani quvonarli holat.

Islomiy moliyaviy mahsulotlar kapitalizmga, Amerika va Yevropa moliya tizimlariga nisbatan yangi hodisadir. Garchi sherikchilikka asoslangan, ijtimoiy va axloqiy jihatdan shariat qoidalariga mos moliyaviy amaliyotlar payg'ambar Muhammad (sav) davrlaridan mavjud bo'lsada, ular yaxlit iqtisodiyot sifatida yaqindan rivojlana boshlagan.

Islom banklari shariat qonunlari asosida ishlaydi. Faqat aniq loyihalar uchun foizsiz pul taklif qiladi. Islom bankining an'anaviy banklardan asosiy farqi depozitlar bo'yicha foizlarning taqiqlanishidir. Islom banki qarzning muddati va hajmiga qarab oldindan belgilangan foizni taqiqlaydi. Ya'ni islom banklari bilan sherikchilik qilmoqchi bo'lgan odamlarga bank oldindan kafolatlangan summa va'da qilmaydi. Musulmonlar foyda olishlar mumkin, ammo buning uchun foizdan (ribo) foydalana

olmaydi. Bu islomda sudxo‘rlik deb atalib, buni insoniy jihatdan sog‘lom muhit deb atash noto‘g‘ri bo‘lishini ko‘pchilik tan oladi. Islom banklari foiz olmaydi. U kreditor emas, investorga aylanadi. Shunga ko‘ra, u tadbirkor bilan riskni baham ko‘radi.

Yuqoridagi fikrlar bo‘yicha *“Marifa Academy”* tomonidan chiqarilgan Islom banklari prinsplari va amaliyoti kitobda quyidagi fikrlar aytib o‘tilgan: “Iqtisodiyot inson hayotining eng muhim jihatlaridan biridir. Iqtisodiy xatti-harakatlar, iqtisodiy faoliyat nuqtai nazaridan ifodalanganidek, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste‘mol qilishni o‘z ichiga oladi. islom o‘z yo‘l-yo‘riqlarining bir qismi sifatida insonlarning iqtisodiy xulq-atvori bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar beradi”<sup>1</sup> Adabiyotda aytilishicha ushbu industriya 1980-yillarda keng tarqala boshlagan.<sup>2</sup>

Birinchi islomiy moliyaviy tashkilot 1963-yilda Misrda tashkil topgan. Asoschisi Mit Ghamr bo‘lib, u jismoniy shaxlarning mablag‘larini jalb qilgan va ularni investitsiya qilgan. Mit Ghamr banki 1967-yilgacha faoliyat olib borgan. 1980-yilga kelib Malayziyada ham islom banki *“Bank Islam Malaysia Berhad”* faoliyat boshlagan. Saudiyada o‘sha davrlarda qariyb 50 yildan buyon faoliyat olib borayotgan, *“Bank Islam Malaysia Berhad”* nomi bilan ochilgan investitsion tashkilotga islom sha‘riyat qoidalariga muvofiq ishlash bo‘yicha ilk islom banki litesenziyasi berilishi ham ushbu sohani rivojiga kata hissa qo‘shdi.<sup>3</sup>

Yana bir ishonchli manbaalardan biri ham islom moliyasining rivojlanishini 1970-1980-yillarda boshlanganini ta’kidlaydi. “1970-yillarda sanoat o‘zining birinchi yirik rivojlanishini boshdan kechirdi va global sahnada paydo bo‘ldi, o‘shanda Fors ko‘rfazi davlatlarida islomiy moliyaviy xizmatlarni taklif qiluvchi bir nechta institutlarni tashkil etishni qo‘llab-quvvatlagan. Shundan buyoq islom moliyasi hajmi va ko‘lami jihatidan sezilarli darajada o‘sib kelmoqda”<sup>4</sup>.

Manbaada aytilishicha 1970-yillardan boshlab Islom moliya tizimi va uni barcha asosiy o‘yinchilar tomonidan qabul qilish usuli tubdan o‘zgargan: mahsulotlar va xizmatlar diversifikatsiyasi kuchayishi kuzatildi. Islomiy moliya endi “dunyoviy” global moliya tizimiga qarama-qarshi emas, balki uning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda<sup>5</sup>.

***Bugungi kunda islomiy moliyaviy tizim musulmon jamoalariga turli xil diniy ma’qul bo‘lgan moliyaviy xizmatlarni taqdim etish uchun, shuningdek, axloqiy investitsiyalar va ko‘proq xavflarni diversifikatsiya qilishni istaydigan musulmon bo‘lmagan mijozlar uchun muqobil sifatida mavjud.***<sup>6</sup>

Nomi bilan bank deb atalsada, islom banklari an’anaviy banklardan yoki bank

<sup>1</sup> *Marifa Academy, Islamic banking & finance: Principles and practices. 2014. P. 15.*

<sup>2</sup> *Marifa Academy, Islamic banking & finance: Principles and practices. 2014. P. 31.*

<sup>3</sup> *Marifa Academy, Islamic banking & finance: Principles and practices. 2014. P. 31.*

<sup>4</sup> *Filippo, D.M., Lauren. Ho., Islamic banks in Europe, Occasional paper, 2013. P. 14.*

<sup>5</sup> *Filippo, D.M., Lauren. Ho., Islamic banks in Europe, Occasional paper, 2013. P. 14.*

<sup>6</sup> *El-Gamal, M. A. (2001), An Economic Explication of the Prohibition of Riba in Classical Islamic Jurisprudence, Rice University, Houston, Texas. P. 13.*

tushunchasidan farq qilishi mumkin. Chunki islom banklari yuqorida ta'kidlanganidek an'anaviy banklardan farqli ravishda faoliyat olib boradi. Wikipedia ma'lumotlariga tayanilsa, bank bu depozitlar jalb qilib, bevosida yoki bilvosida kredit berish bilan shug'ullanuvchi tashkilotdir<sup>7</sup>. Kreditlar esa oldindan belgilangan summadagi foizlar bilan beriladi. Bu esa islom moliyasida ribo deb ataladi va u qat'iy taqiqlangan. "Foizni taqiqlash tavakkal qilmasdan foyda bo'lmaydi degan taxminga asoslanadi."<sup>8</sup>

Islom moliyasiga ko'ra, moliyalashtirish faoliyati foyda va zararni taqsimlash tamoyili asosida amalga oshiriladi. Shariat qonunchiligiga ko'ra, moliyalashtirish faoliyati turli xil shartnomalar bilan amalga oshiriladi. Shariat qonunchiligida mudoraba foyda va zarar tadbirkorlar va moliya institutlari o'rtasida qanday taqsimlanishini belgilaydi. Foyda oldindan belgilangan nisbatda taqsimlanadi, shuning uchun biznesdagi daromadlar biznesning rentabelligiga qarab o'zgaradi. Yo'qotishlar moliya instituti tomonidan qoplanadi. Boshqa tomondan, an'anaviy bank ishida moliya instituti biznes faoliyatidan qat'i nazar, berilgan kreditlar bo'yicha foizlarni olish huquqiga ega.

Islomiy bank ishi an'anaviy foizga asoslangan banklar singari narx belgilash va pul ayirboshlash va foiz olishga asoslanmagan, balki u tovar va xizmatlar sotiladigan va shariatga muvofiq foyda olish uchun tavakkal qilib sarmoya kiritiladigan savdo tizimidir<sup>9</sup>. Bu Qur'on amriga asoslanadi, unga ko'ra ribo taqiqlangan bo'lsada, savdoga ruxsat berilgan. Demak, islom banklari o'sib borayotgan musulmon aholisi va uning ehtiyojlarini qondirish uchun an'anaviy banklar funksiyalarini bir qismini bajaradigan tashkilotdir. Bunda, bank kapitalizmning asosi foizga emas, balki savdo-sotiqqa asoslanadi.

Islom banklari ochilishida dastlab an'anaviy banklarga islom moliyasi mahsulotlarini taqdim qiladigan oynalar (Islamic windows) ochish tavsiya qilingan. Lekin, kata ehtiyojni qondirish uchun, alohida banklarga ehtiyoj sezila boshlagan. Biroq, bugungi kunga kelib, butun dunyoda ham islom banklari ham an'anaviy banklardagi islom darchalari faoliyat olib bormoqda. Ba'zi rivojlanayotgan davlatlar, xususan O'zbekiston ham islom moliyasini rivojlantirishda islom banklarini ochishdan oldin, mavjud an'anaviy banklarda islom darchalarini ochishdan boshlamoqda.

Washington davlat universiteti professori Kalathunga A. islom banklari faoliyati haqida shunday deydi: "Jamiyatda real iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mablag' ajratadigan an'anaviy banklarga o'xshab, islom banklari depozitlar va tashqi mablag'larni yig'ib, so'ngra ulardan tijorat kreditlari va ipoteka kabi mavjud aktivlarni moliyalashtirish uchun foydalanishi kerak."<sup>10</sup> Banklar tomonidan jalb qilingan tashqi

<sup>7</sup> <https://en.wikipedia.org/wiki/Bank> Murojaat vaqti: 09.05.2024 15:44.

<sup>8</sup> Filippo, D.M., Lauren. Ho., *Islamic banks in Europe, Occasional paper*, 2013. P. 15.

<sup>9</sup> Ahmadjonov O., Abdullayev A., *Islom banki va an'anaviy banklar o'rtasidagi farqlar, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Toshkent, 2023, Bb. 755-761.*

<sup>10</sup> Grais, W. and Kulathunga, A. (2007). *Capital structure and risk in Islamic financial services*. *Islamic finance: the regulatory challenge*, P. p. 69-93.

mablag'lar, odatda, ularning aktivlari o'sishining ta'minlovchi omillardan hisoblanadi.

Depozitlar jalb qilish masalasiga to'xtalsa, an'anaviy banklar qo'yilgan depozitlarga va ular bankning ixtoyorida qancha muddat saqlanishiga qarab oldindan belgilangan foizlar va'da qiladi. Islom banklarida esa bu amaliyot biroz farq qiladi.

Islom banklarida investitsiya jalb qilishning bir necha yo'llari mavjud bo'lib, ular shariat qoidalariga to'laqonli mos keladi. Sherikchilikka asoslangan mudoraba, mushoraka instrumentlari eng asosiy manbaa hisoblansa, islomiy obligatsiyalar (sukuk), qarz-hasan, murobaha kabi instrumentlar nisbatan kamroq ishlatiladi. Quyidagi paragraflarda ushbu moliyaviy instrumentlar haqida batafsilroq tushuntirish beriladi.

Mudaraba islom moliyasining asosiy moliyaviy vositasi bo'lib, u shariat tamoyillariga, xususan, foizlarni taqiqlash (ribo) va foyda va zarar taqsimotini rag'batlantirishga rioya qilgan holda kapitalni jalb qilishni eng qulay yo'llaridan biridir.

Mudaraba foydani taqsimlash shartnomasi bo'lib, unda rabbul mol (kapital egasi) deb nomlanuvchi bir tomon sarmoyani, mudorib (tadbirkor yoki boshqaruvchi) deb ataladigan boshqa tomon esa amaliyot va boshqaruvni ta'minlaydi.<sup>11</sup>

Sarmoyadan olingan foyda rabbulmol va mudorib o'rtasida oldindan kelishilgan nisbat bo'yicha taqsimlanadi. Muayyan nisbat shartnomaga qarab o'zgarishi mumkin, ammo shartnomada aniq belgilanishi kerak.<sup>12</sup> Standartda berlishicha mudorib aktivlarni boshqarishga mas'ul shaxsdir. Qoidaga ko'ra mudoribning biznes faoliyatiga hech qanday aralashuv bo'lmaydi va u yoqotishlar uchun majburan javobgarlikni olmaydi.

Banklarda esa investitsiya jalb qilishda, islom banki mudorib, investor esa robbul mol sifatida shartnoma tuziladi. Berilgan mablag' bo'yicha bank shariatga muvofiq investitsiya qiladi foyda va zararlar shartnomada belgilanganidek taqsimlanadi. Mudorib barcha tegishli ma'lumotlarni, shu jumladan tavakkalchilik va moliyaviy natijalarni rabbulmolga oshkor qilishi kerak.

Murobaha o'z navbatida ikki turga bo'linadi:<sup>13</sup>

- Cheklangan mudaraba (Al-Mudaraba Al-Muqayyada): Ushbu turdagi kapital ta'minotchisi mablag'lardan foydalanishni muayyan loyihalar yoki sektorlar uchun cheklaydi. Mudorib bu cheklovlarga rioya qilishi kerak va kapitalni cheklangan korxonalariga kiritmaydi.

- Cheklanmagan mudarabah (Al-Mudaraba al-Mutlaqah): Bu yerda kapital ta'minotchi mudoribga mablag'larni o'zlari xohlaganicha, shariatga rioya qilish doirasida investitsiya qilish uchun to'liq ixtiyori beradi. Mudarib kapitalni investitsiyalashning loyihalari tanlashi mumkin.

<sup>11</sup> John D., "Islamic Finance and Investment Strategies," *Journal of Islamic Banking and Finance*, 2020, Pp. 45-60.

<sup>12</sup> Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI) Shariah Standard No. 13

<sup>13</sup> AAOIFI, "Shariah Standard No. 13: Mudarabah," AAOIFI Shariah Standards, 2010, Pp. 150-170.

Musharaka yoki sherikchilik islomiy moliyada qo‘llaniladigan asosiy vositalardan biridir. Bu ikki yoki undan ortiq tomonlar tadbirkorlik faoliyatiga kapital qo‘shadigan, oldindan kelishilgan nisbat bo‘yicha foydani bo‘lishadigan va yo‘qotishlarni o‘zlarining kapital hissalariga mutanosib ravishda o‘z zimmalariga oladigan kapitalni moliyalashtirish shaklidir. “Musharaka” atamasi arabcha “Shirka” so‘zidan olingan bo‘lib, ulashish ma’nosini bildiradi. Islom banklari investitsiyalar jalb qilishda mushoraka instrumentidan foydalanishi mumkin. Bunda investorlar bilan bank sherikchilik qiladi, qoidaga muvofiq foyda va zararda sherik bo‘lishadi. Garchi mushoraka bilan bog‘liq amaliyotlar ko‘p ucharamasda, bazi kata loyihalar ustida bu instrumentdan foydalanish mumkin.

Yana bir islom banklarining mablag‘ jalb qilish uchun foydalanadigan instrumentni bu – Vakolat. Bu islomiy moliyaviy tushuncha bo‘lib, unda bir tomon (asosiy yoki muvakkil) boshqa tomonni (agent yoki vakil) o‘z nomidan muayyan vazifani bajarish uchun tayinlaydi, odatda sarmoya yoki aktivlarni boshqarishni o‘z ichiga oladi. Agent o‘z xizmatlari uchun haq yoki foydaning bir qismini oladi.

Vakala tushunchasi islom huquqida (shariatda) bayon qilingan vakillik, ishonch va ishonchli javobgarlik tamoyillariga asoslanadi.<sup>14</sup>

Ushbu instrumentdan, islom banklarining hisobotlariga tayanilsa, keng qo‘llaniladi.

Banklar qisqa muddatli likvidlikni boshqarish uchun vakolatdan foydalanadilar. Masalan, ular likvidlikni saqlab qolgan holda daromad olish uchun vakolat shartnomalari bo‘yicha boshqa islomiy moliya institutlariga mablag‘ joylashtirishlari mumkin.<sup>15</sup>

Ortiqcha mablag‘larni shariatga mos keladigan vositalarga investitsiya qilish uchun vakil tayinlash orqali banklar o‘z resurslaridan optimal foydalanishni ta’minlashi, likvidlikni saqlashi va daromad keltirishi mumkin. Bu jarayon nafaqat islomiy moliyaviy tamoyillarga amal qiladi, balki bankning umumiy moliyaviy barqarorligi va rentabelligini oshiradi.

Islomiy qimmatli qog‘ozlar (sukuk) - bu aksiyalar va obligatsiyalar xususiyatiga ega bo‘lgan gibril qimmatli qog‘ozlardir.<sup>16</sup> Ko‘pincha islom obligatsiyalari deb ataladigan sukuk islom qonunlariga (shariatga) mos keladigan moliyaviy instrumentdir. Qarz majburiyatini ifodalovchi an’anaviy obligatsiyalardan farqli o‘laroq, sukuk moddiy aktivga egalik huquqini, aktivning uzufuktini yoki loyihaga investitsiyani ifodalaydi. Sukuk egalarining daromadlari islom moliyasida taqiqlangan foiz to‘lovlaridan emas, balki ushbu asosiy aktivlar yoki loyihalardan olingan daromadlardan olinadi.


<sup>14</sup> Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2011). "An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice," John Wiley & Sons, Pp. 115-130.

<sup>15</sup> Usmani, M. T. (2002). "Islamic Finance," Arab Law Quarterly, Pp. 243-262.

<sup>16</sup> Pegah Z. Uppsala Faculty of Law, An Introduction to Islamic Securities (Sukuk), 2017. P. 2.

Islom banklari sukuk emissiyasiga mos keluvchi aktivlar yoki loyihalarni aniqlaydi. Odatda SPV (Special Purpose Vehicle) deb ataluvchi maxsus kompaniya ochiladi va u sukuk bilan bog‘liq savdo jarayonini amalga oshiradi.<sup>17</sup>

Manbaalarda aytilishicha islom banklari sukukni potentsial investorlarga, shu jumladan institutsional investorlarga, yuqori daromadli shaxslarga va chakana investorlarga sotadi.<sup>18</sup> Malayziyadagi islom banklarida omonat depozitining qiymati o‘sib borayotganini ko‘rish mumkin. (1-rasm).



1-rasm. 2013-yildan 2022-yilgacha Malayziyadagi islom banklarida omonat depozitining qiymati (mlrd MR).<sup>19</sup>

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. AAOIFI, "Shariah Standard No. 13: Mudarabah," AAOIFI Shariah Standards, 2010, Pp. 150-170.
2. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI) Shariah Standard No. 13.
3. Ahmadjonov O., Abdullayev A., Islom banki va an‘anaviy banklar o‘rtasidagi farqlar, *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, Toshkent, 2023, Bb. 755-761.
4. *El-Gamal, M. A. (2001), An Economic Explication of the Prohibition of Riba in Classical Islamic Jurisprudence, Rice University, Houston, Texas. P. 13.*

<sup>17</sup> Islamic Development Bank, "Sukuk: A Guide to Issuing, Structuring and Investing in Sukuk," 2020

<sup>18</sup> Islamic Development Bank, "Sukuk: A Guide to Issuing, Structuring and Investing in Sukuk," 2020.

<sup>19</sup> <https://www.statista.com/statistics/1422560/malaysia-islamic-banks-savings-deposit>. Murojaat vaqti: 15.05.2024 12:30.

5. Filippo, D.M., Lauren. Ho., Islamic banks in Europe, Occasional paper, 2013. P. 14.
6. *Grais, W. and Kulathunga, A. (2007). Capital structure and risk in Islamic financial services. Islamic finance: the regulatory challenge, P.p. 69-93.*
7. <https://en.wikipedia.org/wiki/Bank> Murojaat vaqti: 09.05.2024 15:44.
8. <https://www.statista.com/statistics/1422560/malaysia-islamic-banks-savings-deposit>. Murojaat vaqti: 15.05.2024 12:30.
9. Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2011). "An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice," John Wiley & Sons, Pp. 115-130.
10. Islamic Development Bank, "Sukuk: A Guide to Issuing, Structuring and Investing in Sukuk," 2020
11. Islamic Development Bank, "Sukuk: A Guide to Issuing, Structuring and Investing in Sukuk," 2020.
12. John D., "Islamic Finance and Investment Strategies," Journal of Islamic Banking and Finance, 2020, Pp. 45-60.
13. Marifia Academy, *Islamic banking & finance: Principles and practices. 2014. P. 15.*
14. Pegah Z. Uppsala Faculty of Law, An Introduction to Islamic Securities (Sukuk), 2017. P. 2.
15. Usmani, M. T. (2002). "Islamic Finance," Arab Law Quarterly, Pp. 243-262.